



KINOOPERATOR-KINOREJISSOR XAMIDULLA XASANOV

IJODIY USLUBI MILLIY KINO KONTEKISTIDA

Xaitov Muhiddin Mo'minjon o'g'li

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Magistratura bo'limi
“Kinooperatorlik” mutaxassisligi 2-
bosqich magistratura talabasi*

Annotatsiya: Filmni san'at bo'lib taraqqiy topishida kinooperatorlarning ham asosiy o'rinalidan birini egallaydi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi Xamidulla Xasanovning ijodi yosh ijodkorlar uchun namunaviy ijod maktabi sifatida xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, Xamidulla Xasanovning ekranida muhrlanib qolgan noyob kadrlari kino san'atining muhim jihatlarini tashkil qiladi. Afsuski, hozirgi paytda kuniga internetning Instagram, Tik-tok va b. kabi platformalarida didsiz telefon kamerasida tasvirga olib ommaga tarqatish urf bo'lib kelmoqda. Bu esa kino san'ati mumtoz arboblar ijodi, hayot yo'lining sermazmun izlanishlari, ularning ijodkorlik uslublari, tajribalarini tahlil etish hamda targ'ib qilish zaruriyatini kun tartibiga dolzarb vazifalardan biri sifatida ilgari surmoqda.

Kalit so'zlar: kino, kino san'ati, rejissor, rassom, operator, chiroqchi, ovoz rejissori

Аннотация: Кинооператоры также занимают одно из главных мест в развитии кино как искусства. Не будет преувеличением сказать, что творчество заслуженного работника культуры Узбекистана Хамидуллы Хасанова служит образцовой школой творчества для молодых творческих людей. Ведь уникальные кадры Хамидуллы Хасанова, запечатленные на экране, составляют важнейший аспект киноискусства. К сожалению, в настоящее время в день Instagram, Tik-Tok и т. д. безвкусный на таких платформах, как телефон, уже давно стало традицией распространять изображения на камеру телефона. Киноискусство выдвигает в качестве одной из актуальных задач на повестку дня необходимость анализа и пропаганды творчества классических деятелей, плодотворного поиска жизненного пути, стилей их творчества, опыта.

Ключевые слова: кино, киноискусство, режиссер, художник, оператор, осветитель, звукорежиссер.



O'zbekiston kinomatografiyasi murakkab va qiziqarli rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. O'zbek kino san'atining yuzaga kelishi, shakillanishi va tarqqiy etishi Respublika xayotida ro'y bergan ulkan o'zgarishlarning yorqin dalilidir. O'zbekistonda kino ishlab chiqarish 1924 yilda, Buhoro respublikasi hukumati Leningradning "Sevzap kino" kino tashkiloti bilan hamkorlikda "Buhkino" o'troqlik uyishmasini tashkil etish to'g'risidagi bitim imzolagan kundan boshlangan edi. Ushbu tashkilot bor yo'g'i ikki yil davomida faoliyatini yuritgan bo'lib, O'zbek adabiy materiallariga asoslangan ikkita filmni - O'lim minorasi ("Minaret smerti") va "Musulmon ayol" ("Musulmanka") filmlarini ishlab chiqargan.

Kino turlari asosan badiiy, hujjatliy, ilmiy ommabop va animatsion filmlar turlariga bo'linadi. 1925 yilda Toshkentda "sharq yulduzi" kino fabrikasi tashkil etildi. 1932 yilda badiiy filmlar kinostudiosida xronikal filmlar yaratish bo'limiga asos solindi. Kinostudioda kino ishlab chiqarish jarayonini samaraliy yo'lga qo'yishdi. Birinchi O'zbek kinooperatori Xudoybergan Devoniv ham o'zining bir qator hujjatliy filmlarini tasvirga tushurgan. O'zbek kinostudiosida ishlab chiqarilgan asosiy ovozsiz badiiy filmlar asosan tashviqot va targ'ibot g'oyalari bilan sug'orilgan edi.

Hujjatli filmning kinooperatorlarni kameralari, respublikada kechayotgan muhim voqealar va hodisalarini yoritishga qaratilgan edi. O'zbek milliy kinomatografiyasining ko'zga ko'ringan ustalari bo'lib yetishgan Nabi G'aniyev, Sulaymon Xo'jayev, Ergash Xamrayev, Komil Yormatov, Malik Qayumov, Yo'ldosh Agzamov, Raxim Pirmuhammediv kabi yosh O'zbek kinomatografchilari ham faol ishtirok etganlar. Rejissor A.Usalsev va operator Simbirtsev tomonidan suratga olingan, Asad Ismatov bosh rolni ijro etgan birinchi ovozliy o'zbek filmi bo'lgan qasam 1937 yil. Bu film O'zbekiston badiiy kinosining



shakillanishida muhim voqea bo'ldi.¹ Malik Qayumov tomonidan suratga olingan Toshkent to'qimachilik fabrikasi 1938 yil bu esa hajjatliy filmning Nyorkdagi butun jahon ko'rgazmasida namoyish etilishi, festivalning Katta oltin medalini qo'lga kiritishi ham alohida etirofga sazovar hodisa bo'ldi.

Ikkinchı jahon urishi yillari O'zbekiston kino ijodkorlari uchun juda murakkab, sinovliy davr bo'lib ular front uchun, g'alaba uchun fidokorona mehnat qildilar. Ularning ko'pchiligi frontga borib fashizimga qarshi kurashdilar. Urishning dastlabki kunlaridanoq Toshkent studiosi ko'plab qisqa metirajli badiiy filmlarni ishlab chiqarishga kirishdi. Bulardan "Biz g'alaba qozonamiz", "Jasur do'stlar", "Front uchun kansert" va boshqa filmlar ekiran yuzini ko'rdi. Ushbu filmlarga Nabi G'niyev, Komil Yormatov, Yo'ldosh Ag'zamov, Zohit Sobitov, kabi umidliy va istedodliy rejissorlar mualliflik qilgan. Filmlarda frontdagi askarlarning qahramonligi va dovyurakligi, front ortidagi xalqning fidokorona mehnati haqida hikoya qilingan. Filmlarning barchasi vatanparvarlik tuyg'usi bilan yo'g'rilgan edi. Qisqa vaqt ichida Toshkent kinostudiosi kino ishlab chiqarish uchun zarur uskunalar bilan jihozlangan, isdedodliy kinoijodkorlarning kattagina gruhini o'ziga birlashtirish orqali katta bir korhonaga aylandi. Studioda yuzmingdan ortiq ijodkor va texnik hodimlar ish bilan taminlandi. Ishlab chiqarish maydoni qo'shimcha binolar bilan kengaydi va Samarqandda kinostudiyaning filiali tashkil etildi.

Shu bilan birga, studiya to'liq metirajlik badiiy filmlar ishlab chiqarishga kirishdi. Urush avjiga chiqqan pallada O'zbekistonda urush mavzusidagi bir qator filmlar ishlab chiqarildi. Shu davrda eng yahshi natijalarga erishib tomoshabinlarga yoqqanlari "217-raqamliy inson" va "Ikki jangchi" filmlari bo'ldi. Urush davrida Toshkent kinostudiosida "Nasiriddin buhoroda" Yana "Tohir va Zuhra" filmlari ustida ish boshlandi. Ular urish yillarining ohiriga kelib

¹ A.I.Ismoilov Kinooperatorlik mahorati darslik -2021



ekiranlarda paydo bo'ldi.² Bu murakkab va og'ir yillarda Toshkent studiosida kinoga oid barcha kasb egalari charchoq bilmay, yelkama-yelka mehnat qildilar. Toshkentda istedodli va atoqli yirik kinorejissorlar, operatorlar va aktyorlarning faoliyat yuritishi natijasida kino yanayam rivojlandi. Aktyor va aktrisalarimiz esa kino ustalarining filmlarida suratga tushdilar. Bu maktab juda sermaxsul bo'ldi.

O'zbek kinomatagrafchilari urishning so'ngi yillari va urishdan keyingi dastlabki yillarida bir nechta mashhur filmlarni suratga olishga muvaffaq bo'ldilar. Ulardan "Tohir va Zuhra", "Alisher Navoiy", "Nasirriddinning sarguzashtlari", "Paxtaoy" kabi filmlarni tasvirga olib, O'zbek va jahon kinomatografiya san'ati hazinasiga salmoqliy hissa qo'shdilar. O'zbekiston hujjatliy kino ijodkorlari ham urish yillarida mashaqqatliy va samaraliy mehnat qildilar. 1932-yildayoq respublikaning hujjatliy film ustalari mustaqil kinostudioga birlashtirilgan edi. O'zbek hronikal filmlar studiosi 1949-yilgacha faoliyat yuritdi. Undan so'ng yana "O'zbekfilm" kino studiosi bilan birlashtrildi. Ammo oradan biroz vaqt o'tib, elliginchi yillarning boshida yana mustaqil holda O'zbekiston ilmiy-ommabop va hujjatliy filmlar kinostudiosi tashkil etildi. U bugungi kunda ham samaraliy faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 50-yillarda O'zbekfilm studiosi ijodiy jamoasi son jihatdan ko'plab filmlarni tasvirga tushura boshladilar. Studioga yangi ijodiy shaxslar kirib keldi. Ular o'zлari bilan yangi mavzularni, yangi yechimlarni, yangicha izlanishlarni, hayot va san'atga bo'lgan yangicha munosabatni olib keldilar. 1956-1959 yillar ichida O'zbekfilm kino studiosi tomonidan turliy janrlar va mavzularni qamrab olgan o'ndan ortiq badiiy filmlar tasvirga olindi. Shu davrda "Farzandlar olg'a boradilar" va "Ibn Sino" filmlari suratga olingan. Qayd etilgan filmlar Respublikaning madaniy hayotida muhim voqeа bo'lganligini etirof etish lozim. Shu yillarda filmlarga etibor qaratsak, shuni alohida etirof etishimiz mumkinki, o'zbek kinomatrafistlari o'z ijodlarida yangi

² A.I.Ismoilov Kinooperatorlik mahorati darslik -2021



va zamonaviy mavzularga qo'l urishga, zamon bilan hamnafas bo'lishga intilganlar. Ekranlarda birin-ketin 10 dan ortiq zamonaviy mavzularda tasvirga olingan badiiy filmlar ekiranlarga chiqdi. Rejissor Y.Agzamov "Gulbahor","Orol baliqchilari", "Maftuningman" filmlarini ishlab chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Zohit Sobitov ham shu davrda "Stadionda uchrashamiz" degan yangicha bir kamediya janrida film olgan. Keyinchalik detiktiv janiriga mansub "Sahrodagi voqeа" filmini suratga oldi. Komil Yormatov va Latif Fayziyevlar ijodiy hamkorligida "Atirgullar gullaganda "degan film hamda "Ikkinchi gullah" filmlarini tasvirga olishgan. Kinostudiyaning o'sha davrdagi imkoniyatlaridan kelib chiqib qarasak qisqa muddatda son jihatdan bu qadar ko'p filmlarning ishlab chiqarilishi o'zbek kino san'ati uchun katta yutuq edi. 60-yildan boshlab o'zbek kinomatografiyasida rivojlanish va o'sish davri boshlandi. respublika kinomatografiyasiga yosh rejissorlar, senariy mualliflari, kinooperatorlar, rassomlar guruhi kelib qo'shildi. Ishlab chiqarishning hajmi ortdi. Filmlarning mavzu va janrlari chegarasi kengayib bordi va natijada o'zbek kino ijodkorlarining faoliyati ham rivojlanib bordi. Ekiranlarga biri-biridan qiziqarli yirik filmlar chiqsa boshladи. Bulardan "Mahallada duv-duv gap", "Sen yetim emassan", "Nafosat", "Ulug'bek yulduzi", "Toshkent non shahri" va bir qator etiborga molik bo'lgan hujjatli filmlar ishlab chiqarildi. Kino ustalari 60-yillari ohirlari va 70-yillarga kelib o'z ijodlarida g'oyaviy-badiiy yetuklikga, yangi ijodiy pog'onalaraga ko'tarilganlarini namoyish etdilar. Ulkan mahorat va tajribaga ega bo'lgan rejissorlar Komil Yormatov, Yo'dosh Agzamov, Zohit Sobitov, Latif Fayziyev, hamda Shuhrat Abbosiv, Ali Hamrayev, Ravil Botirov, Uchqun Nazarov, Elyor Eshmuhammedov, kabi bir qator ilg'or fikirlovchi va izlanuvchi yoshlar " Toshkent non shahri" "Abu Rayhon Beruniy" "O'tgan kunlat" "Favqulotda Kamissar" " Seni kutamiz yigit" " Sevishganlar " Farhodning jasorati" "Inson qushlar ortidan boradi" " Achiq meva " "Ikki askar haqida meva " "Qo'qon voqeasi" yana televizion badiiy filmi,



"Shum bola " va boshqa talaygina mashhur va yetuk kinoasarlarni ishlab chiqarishga muvoffaq bo'ldilar. Respublika kino san'atining keskin rivojlanib borishi 60-yillarda boshlandi. 1961 yilda "O'zbekfilm" Studiosi Shoyhantahur madrasasidan yangi qurilgan binoga, yani chilonzor hududiga ko'chib o'tdi. Studio yangi jihozlar, hona va sexlarga ega bo'libgina qolmay, eng zamonaviy texnik jihozlar bilan taminlandi. Ayniqsa eng zamonaviy tasvirga olish uskunalarini va pavilionlariga ega bo'ldi. Keyinchalik 1966 yilda ilmiy ommabop va hujjatliy filmlar studiosi ham yangi binoga joylashadi. Ijodiy va texnik hodimlar Jamoasiga yosh mutaxasislar kelib qo'shiladi. Ular butun ittifoq davlat kinomatografiya inisitutini (VGIK) tamomlagan, Leningrad kino muhandislari inisitutini (LIKI) , Moskva oliy senariy mualliflari malaka oshirish o'quv yurtini hamda Toshkent tiatr va rassomlik inisitutini tamomlagan bir guruh bitiruvchilari ijodkorlar yoshlari edilar. Bularning barchasi badiiy, ilmiy-ommabop va hujjatliy filmlar ishlab chiqarish imkonlarini yanada kengaytirdi. Natijada sifat o'zgarishlari yuz berdi. Yoshlar o'z ijodiy imkoniyatlarini namoyish eta boshladilar. Ijodiy jarayonda uning uslub va uslibiyatida yangilanish ko'zga tashlana boshladi. Kasbiy mahorat takomillashib o'sib bordi. Mavzu va janirlar rangbarangligi ko'rinish berdi. ijodkorlar tomonida o'ziga hos ijodiy maktab ananalari, yillar davomida orttirilgan ulkan ijodiy tajribalar asosida yanada faol shakillandi, rivojlandi. Badiiy kinoga yangi ijodkorlar o'zlarini yangi zamonaviy mavzulari, yangicha dunyo qarashlari ilg'or ijodiy uslublari bilan kirib kelishdi. Ammo shuni ham takidlash zarurki zamonaviy mavzular barcha filmlarda ham ozining yetarli darajadagi badiiy ifodasini topmadi. Hayot haqidagi yuzaki tassavur, haqiqatni, voqelikni tasvirlashda kasbiy mahoratning yetishmasligi filmlarning g'oyaviy va badiiy darajasiga salbiy tasir ko'rsatdi. biroq shu bilan birga bir qator yahshi filmlar ham ishlandi. Bulardan " Oqqushlar oppoq qushlar ", " Uyg'onish ", "Surayo",



"Davra", "Nafosat ", "Sevishganlar " kabi asosan yosh rejissorlar tomonidan ishlangan kinoasarlar o'sha davr O'zbek kinomatografiyasini ko'p jihatdan boyitdi va uni ijodiy kamolat sari boshladi. Bularning barchasi kinostudio ijodiy jamoasining kasbiy mahorati o'zib borayotganidan, ijodkorlarni zamonning dolzarb muammolarini o'ziga hos tarzda anglashga, tushunishga va to'g'ri ifoda etishga urinayotganliklaridan dalolat beraredi. 1970 yildan boshlab Nukus shahrida O'zbekiston ilmiy-ommabop va hujjatliy filmlar kinostudiosining "Qoraqalpog'iston kinojurnali" muntazam ekiranga chiqib bordi. Shu bilan birga hujjatliy filmlarni suratga olish hamda badiiy filmlarni Qoraqalpoq tiliga dublaj qilish kabi ishlar ham yo'lga qo'yildi. Shu davrda O'zbekfilm kinostudiosi har yili mamlakat ekiranlarida namoyish etishi uchun 10 ta to'liq metirajli badiiy va televizion filmlarni chiqardi va shu bilan birga 75 ta horijiy badiiy filmlarni o'zbek tiliga dublaj qilingan holatda yetkazib berardi. 1991-yilga kelib O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat inisitutida professor Abduraxim Ismoilov tomonidan tashkil etilgan " Kinoteleoperatorlik" yo'nalishi ochildi.³ Shu kungacha "Kinoteleoperatorlik" yo'nalishini tomonlagan talabalar turli hil ko'rik tanlovlarda o'z ijodiy ishlari bilan oliy o'rirlarni olib, o'z yutuqlari bilan o'zbek kinosi kelajagi ulkan o'zgarishlar tamon ketayotganini ko'rsatib kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kinoperator kino rejissor Xamidulla Xasanovda interyu
2. A.I.Ismoilov Kinooperatorlik mahorati darslik -2021
3. I.M.Meliqoziyev. O'zbek badiiy filmlarida kinooperatorlik mahorati MONOGRAFIYA – 2022.
4. I.M.Meliqoziyev. yorug'lik rang va kompozitsiya asoslari – 2020.

³ A.I.Ismoilov Kinooperatorlik mahorati darslik -2021
Kinoperator kino rejissor Xamidulla Xasanovda bilan suhbat. 2022 yil 27-sentabr